



## HOFIZ TANISH BUXORIYNING “ABDULLANOMA” ASARI TIL XUSUSIYATLARI

Berdimuratova Dilnoza Rahmatullayevna

Osiyo texnologiyalar universiteti 1-kurs magistranti

QDTU Nuriston akademik litseyi o'qituvchisi,

dilnoza1.04.1987@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20423818>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xofiz tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida keltirilgan etnonimlar o'rganib chiqilgan. Ularning asrardagi ma'no va mavzu yuzasidan tahlili hamda ularning antroponimik jihatdan kelib chiqishi ilmiy manbalarga tayangan holda tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** etnonim, antroponim, onomastika, “Abdullanoma”, leksik-semantik, ma'no-mazmun

**Annotation.** This article examines the ethnonyms mentioned in “Abdullanoma” by Hofiz Tanish Bukhari. Their meanings in that historical period are analyzed in relation to the topic, and their anthroponymic origins are studied based on scientific sources.

**Keywords:** ethnonym, anthroponym, onomastics, Abdullanoma, lexical-semantic, meaning and content.

**Аннотация.** В данной статье изучаются этнонимы, упомянутые в работе Хафиза Таниша Бухари «Абдулланома». На основе научных источников анализируются их значение и тематика на протяжении веков, а также происхождение из антропонимического состояния.

**Ключевые слова:** этноним, антропоним, ономастика, «Абдулланома», лексико-семантический, смыслово-содержательный.

Ushbu izlanishda XVI–XVII asrlarning noyob yodgorligi Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi Shohiy" asarida uchraydigan etnonimlar - xalq, qabila, urug' va elat nomlarining til xususiyatlari tahlil etiladi. Etonimlarning morfologik tuzilishi, semantik qatlami, grammatik shakllari va qo'llanish doirasi o'rganiladi. Asardagi etnonimlarning qadimiy turkiy va forsiy-arabiy qatlamlari hamda ularning o'zbek adabiy tili tarixidagi o'rni belgilanadi. O'zbek tilshunosligida tarixiy yozma yodgorliklarning leksik-semantik tizimini o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, etnonimlar — ya'ni xalq, qabila, urug' va elat nomlarini bildiruvchi so'zlar guruhi — tarixiy onomastikaning muhim sohasini tashkil etadi. Bu so'zlar nafaqat lingvistik, balki tarixiy, etnografik va madaniy ma'lumotlarni ham o'zida mujassam etadi. Xofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy (taxminan 1549–1625) Shayboniylar va Ashtarxoniyalar sulolasi davrida yashab ijod etgan ulkan tarixchi va adib bo'lib, uning "Abdullanoma" (Sharafnomai shohiy) asari o'rta asrlar o'zbek nasrining durdonalaridan hisoblanadi. Asar Abdullah xon II (1557–1598) hukmronligi davriga bag'ishlangan va o'sha davr siyosiy, ijtimoiy, etnik va madaniy hayotining boy manzarasini aks ettiradi. Asardagi etnonimlar XVI–XVII asr Movarounnahri, Xuroson, Dashti Qipchoq va qo'shni mintaqalardagi etnik guruhlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ularning til xususiyatlarini o'rganish o'zbek adabiy tili tarixini, leksik qatlamlarini va etnik nomlanish tizimini chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Ushbu maqolada XVI–XVII asrlarda yaratilgan Xofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" tarixiy asarida uchraydigan etnonimlar — xalq, qabila, urug' va elat

nomlarining til xususiyatlari tahlil etiladi. Etnonimlarning morfologik tuzilishi, semantik qatlami, grammatik shakllari va qo'llanish doirasi o'rganiladi. Asardagi etnonimlarning qadimiy turkiy va forsiy-arabiy qatlamlari hamda ularning o'zbek adabiy tili tarixidagi o'rni belgilanadi. Xofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy (taxminan 1549–1625) Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi davrida yashab ijod etgan ulkan tarixchi va adib bo'lib, uning "Abdullanoma" (Sharafnomai shohiy) asari o'rta asrlar o'zbek nasrining durdonalaridan hisoblanadi. Asar Abdullah xon II (1557–1598) hukmronligi davriga bag'ishlangan va o'sha davr siyosiy, ijtimoiy, etnik va madaniy hayotining boy manzarasini aks ettiradi. Asardagi etnonimlar XVI–XVII asr Movarounnahri, Xuroson, Dashti Qipchoq va qo'shni mintaqalardagi etnik guruhlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ularning til xususiyatlarini o'rganish o'zbek adabiy tili tarixini, leksik qatlamlarini va etnik nomlanish tizimini chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

Masalan, o'zbek etnonomida XVI asrda ikki semantik qatlam parallel qo'llangan: (1) Shayboniylar bilan kelgan ko'chmanchi qabilalarning umumiy nomi va (2) keng ma'noda Movarounnahr musulmon turkiy aholisining nomi. Bu semantik kengayish "Abdullanoma"da aniq kuzatiladi

Asarda yuz, ming, o'n ming (tuman) kabi raqamlar bilan bog'liq etnonimlar alohida qiziqish uyg'otadi. Bu so'zlar dastlab harbiy-ma'muriy birliklarni bildirgan, keyinchalik etnik nom sifatida mustahkamlangan. Ushbu hodisa turkiy-mo'g'ul harbiy tashkiloti an'anasining til yodgorligini ifodalaydi. Ba'zi etnonimlar asarda ijobiy yoki salbiy konnotatsiya kasb etadi. Qorliq so'zi ko'pincha "begona, g'ayridiydiy"[1] ma'nosida qo'llanadi. Tojik so'zi esa ba'zan "shahri, o'troq, madaniyatli" [2] ma'nosida ijobiy tus oladi. Bu kabi semantik siljishlar etnonimlarning ijtimoiy-siyosiy kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi.

**Qadimiy turkiy qatlam.** O'zbek, qipchoq, qo'ng'iroq, barlos, yuz, ming, uyg'ur kabi etnonimlar eski turkiy davrdan saqlanib kelgan. Ular fonetik jihatdan turkiy fonologiya qoidalariga bo'ysunadi va qo'shimcha olmaydi.[3]

**Mo'g'uliy qatlam.** XIII–XIV asrlardagi mo'g'ul istilosi bilan kirgan etnonimlar: mang'it, qo'ng'iroq, jaloir, kereyt va boshqalar. Bu so'zlar o'zbek tiliga kirib, fonetik adaptatsiyadan o'tgan. [4]

**Forsiy-arabiy qatlam.** Forsiy tilda yozilgan asar tufayli -iy qo'shimchali hosilali etnonimlar va arabiy ko'plik shakllari keng tarqalgan. Bu qatlam asarning yozma adabiy til an'anasiga bog'liqligini ko'rsatadi.[5]

**Geografik-nisbiy qatlam.** Shahar va o'lka nomlaridan yasalgan etnonimlar: buxoriy, samarqandiy, balxiy, hirotiy, kobuliy. Bu qatlamda shaxsning etnik mansubligi emas, geografik kelib chiqishi birinchi o'rinda turadi.[6]

Etnonimlarning asarda tutgan o'rni va qo'llanish tezligi bir-biridan farqlanadi. O'zbek, qozoq va mang'it etnonimlari eng ko'p uchragan so'zlar qatorida turadi. Bu holat ushbu etnik guruhlarining XVI asr Movarounnahr siyosiy hayotidagi markaziy rolga mos keladi.

Etnonimlar asarda quyidagi sintaktik pozitsiyalarda qo'llanadi: ot sifatida (ega va to'ldiruvchi vazifasida), sifat sifatida (aniqllovchi vazifasida) va izofali birikmaning ikkinchi komponenti sifatida. Masalan, bu *ildurkin deb atalib, sulduz qavmining barchasi shu tarmoqdi*. [7] Bu gapfa nazar tashlasak, idurkin qamva nomi gapda – hol, sulduz so'zi esa aniqllovchi vazifasida kelgan. Yana boshqa qavm *kingit edi*. [8] Ushbu gapdagi kingit edi so'z-

ot kesimni shakllantirib kelmoqda. Bu ko'p qirrali sintaktik qo'llanish o'zbek-forsiy ikki tillilik sharoitida etnonimlarning grammatik moslashuvchanligini ko'rsatadi.

b) Fonetik xususiyati:

Qo'ng'iro't - Qorishi'q unli + jarangli undoshlar ketma-ketligi

Mang'it - Burun undoshi + til orqa undoshi birikmasi

Nayman - Ikki bo'g'inli, ochiq bo'g'in tuzilmasi

Qipchoq - Jarangsiz q- bilan boshlanishi, turkiy xarakter

Qarlug' - Til orqa undoshlar ustunligi

a) Qo'shimcha orqali yasali'sh:

Etnonimlar quyidagi qo'shimchalar yordamida yasalgan:

-li / -lik q'shimchasi: Samarqandlik, Buxorolik — mansub bo'lishni bildiradi

b) Ko'p ma'nolilik (polisemiya)

Ba'zi etnonimlar asarda ikki xil ma'noda qo'llanadi:

"O'zbek" — ba'zan tor ma'noda muayyan qabila ittifoqini, ba'zan esa keng ma'noda butun o'zbek xalqini anglatadi. "Turk" — ba'zan umumiy "turkiy xalqlar" ma'nosida, ba'zan tor ma'noda ishlatiladi. "Mug'ul" — tarixan mongollar, keyinchalik turklashgan qabilalar uchun ham qo'llanadi

c) Morfologik xususiyatlar

Yasalish usullari - iy (arab-fors): Xurosoniy, Arabiy — nisbat bildiruvchi qo'shimcha, -on / -iston: Afg'oniston, Tojikiston — hudud nomidan etnonim yasash

-chi: ayrim urug' nomlarida kasbiy-guruh ma'nosi;

Qo'shma etnonimlar: "Abdullanoma"da murakkab tuzilishdagi etnonimlar ham keng uchraydi:

Qora Qalpoq — sifat + ot birikmasi, Qo'ng'iro't — tarixan qo'ng'+ot birikmasidan iborat deb talqin etiladi.

d) Singarmonizm (unli uyg'unligi):

Ba'zi etnonimlar turkiy singarmonizm qonuniga bo'ysunadi: Qo'ng'iro't, Uysun, Durmon kabi shakllarda unli orqa qator bilan garmonik uyg'unlikni saqlab qolgan. Ayniqsa e'tiborga loyiq holat shuki, bir xil etnik guruh bir xil matnda ba'zan turkiy, ba'zan forsiy grammatik shaklda beriladi. Bu Xofiz Tanish Buxoriyning ikki adabiy tizim — turkiy og'zaki an'ana va forsiy yozma adabiyot hamda o'zbek tilshunosligini chuqur tahlil jarayonlari uchun manba vositasi bo'lib xizmat qiladi. Buni keng ma'noda quyidagicha isbotlash mumkin:

Birinchidan, etnonimlar bir necha til qatlamini — qadimiy turkiy, mo'g'uliy va forsiy-arabiy — o'zida mujassam etadi. Bu qatlamlar o'zbek xalqining shakllanish jarayonidagi murakkab etnik va madaniy aloqalarni aks ettiradi.

Ikkinchidan, morfologik jihatdan etnonimlar sodda, hosilali va murakkab turlarga bo'linib, forsiy -iy affiksining faol ishtirokida nisbiy etnonimlar hosil qilingan. Bu holat o'rta asrlar o'zbek-forsiy ikki tilliligi sharoitida til qo'shilish jarayonining yorqin namunasini beradi.

Uchinchidan, semantik jihatdan etnonimlar nafaqat etnik, balki geografik, ijtimoiy va siyosiy ma'nolarni ham ifoda etgan. Bu ularning kommunikativ vazifasining keng ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, "Abdullanoma"dagi etnonimlar o'zbek tarixiy onomastikasining nodir xazinasini tashkil etib, ularni atroflicha tadqiq etish — davom etishi lozim bo'lgan ilmiy vazifadir. Bu orqali onomastik qatlamning til xususiyatalri, boy manba sifatida o'rganiladi. Bu

esa izlanish orqali ononimlrning boyishi va o'ragnilmagan qirralarini ochib berish uchun manba vositasini o'taydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Foydalanilagan adabiyotlar:**

- 1.Xofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1 jild. Sharq nashriyoti, 1999.
- 2.Xofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 2 jild. Sharq nashriyoti, 2000.Nafasov T.
- 3.O'zbek xalq geografik terminlari. — Toshkent: Fan, 1988.
- 4.Qodirov P. O'zbek onomastikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1994.
- 5Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqacha etimologik lug'ati. — Toshkent: O'.zbekiston, 2000.
- 6.Azimov P. va boshq. Turkiy xalqlar onomastikasi. — Toshkent, 2001.